

**INTERFAOL METODLAR VA ULARNING TA'LIM JARAYONIDAGI ROLI****Jalilova Go'zal Hakimovna****Jilkibayev Daulet Seytimbetovich***Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani**1-son kasb hunar maktabi maxsus fan o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** *Bugungi globallashtirish jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuv, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rgangan holda ularni ta'lim jarayonlariga joriy qilish, fan-texnika taraqqiyoti va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning zamonaviy usullarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashning muhimligi takidlangan, interfaol metodlardan namunalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *interfaol metod, innovatsiya, axborot texnologiyalari, klaster, zigzag, muzyorar, aqliy hujum, FSMU, zinama zina, ha-yo'q, kungaboqar, blits so'rov, ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi.*

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Zamonaviy pedagogik interfaol metodlar asosida o'tilgan darslarda o'qituvchi va o'quvchilar fanlararo bog'lanishni, mavzularning mazmun mohiyatini chuqur tahlil etadi. Darsda muamoli vaziyatlar yaratiladi. Ba'zan o'qituvchi, ba'zan esa o'quvchilarning o'zlari muammoni o'rtaga tashlaydilar va fikr yuritib, yechimni topishga intiladilar.

Zamonaviy o'qituvchi har bir darsni qiziqarli va mazmunli tashkil yetishi zarur. O'qituvchi shunday metoddan foydalanishi kerakki, u darsda ortiqcha vaqtni olmasin, foydalanishda o'qituvchi ham, o'quvchi ham qiyinchilikka duch kelmasin. Shunday interfaol metodlardan biri bu «Klaster» metodidir. «Klaster» metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u ta'lim oluvchilarga ixtiyoriy muamolar xususida erkin, ochiq o'ylash va fikrlarni bema'lol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. «Klaster» metodi aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning ta'lim oluvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguncha qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashiga xizmat qiladi. Klasterga ajratish, o'quvchilarga biror bir mavzu to'g'risida erkin va ochiq tarzda fikr yuritishiga yordam beradigan pedagogik strategiyadir.

“Klaster” soʻzi gʻujm, bogʻlam maʼnosini anglatadi. Biror mavzu boʻyicha klasterlar tuzishdan bu mavzuni mukammal oʻrganmasdan oldin foydalanish maqsadga muvofiqdir. Klaster usulini tuzish ketma-ketligi:

1. Katta qogʻozning oʻrtasiga yoki sinf doskasiga yoxud yozish uchun foydalanish mumkin boʻlgan sathga kalit soʻz hamda gap yoziladi.

2. Shu mavzuga tegishli deb hisoblangan va xayolga kelgan soʻz va gaplar yoziladi.

3. Fikrlar tugamaguncha yoki vaqt tamom boʻlgunicha xayolga kelgan barcha fikrlar yozilaveradi.

4. Keltirilgan soʻz va fikrlar mazmuni va yaqinligiga qarab toifalarga ajratib chiqiladi.

Stil va stil gʻoyasiga muvofiq ishlab chiqilgan “Klaster” metodi puxta oʻylangan strategiya boʻlib undan taʼlim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashgʻulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Bu interfaol usulning afzalligi uning qoʻllash natijalari. Klasterni qoʻllash quyidagi afzalliklarga ega:

- u hamma jamoani oʻqish jarayoniga, jalb etadi, ularga bu qiziqarli;
- oʻquvchilar faol va ochiq gapirishadi, nega deganda ularda xato gapirishlik, notoʻgʻri fikrni bayon etish qoʻrquvlari boʻlmaydi.

Bu ishlarni amalga oshirishda quyidagi bilimdonlik mahoratlari oshadi:

- savol qoʻyish mahorati;
- asosiysini ajrata olish;
- sabab-qidiruv aloqalarini oʻrnatish va aqlli xulosalarni qurish;
- shaxsiydan umumiylikga oʻtish, muammolarni butunligida tushunish;
- tahlillash va solishtirish;
- analoglarni oʻtkazish.

Klaster usuli ishlatish darslarda bolalarga nima beradi? Oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatini, ularni oʻz fikrlarini aytishlarini rivojlantiradi. Bularning hammasi kuzatish natijalarida, yangi bilim olish tajribasida, bir vaqt ichida bir nechta yoʻnalishlarni koʻrishda, axborotlarni ijodiy jihatdan tahlillashni rivojlantiradi.

«Zigzag» metodi: Sinf oʻquvchilari 4-7 guruhga boʻlinadilar va guruhlar nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlariga topshiriladi. Oʻquvchilar matnlarni diqqat bilan oʻrganadilar va gapirib beradilar. Vaqtning tejash maqsadida guruh aʼzolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh aʼzolari tomonidan toʻldirilishi mumkin. Barcha guruhlarining oʻquvchilari oʻzlariga topshirilgan matn mazmuni xususida soʻzlab berganlaridan soʻng, matnlar guruhlararo almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. SHu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlar tomonidan oʻrganib chiqilgach oʻquvchilar oʻtilgan mavzu boʻyicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning oʻzaro mantiqiy bogʻliqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan gʻoyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab

chiqiladi. So`ngra o`zlashtirilgan bilimlar asosida o`quvchilarning o`zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

**Muzyorar metodi:** Muzyorar – muomaladagi to`siqlarni yengib o`tishga va o`zaro munosabatlardagi «muzni» yorishga qaratilgan mashqdir. Muzyorar, birinchidan, tanishuv jarayonini rivojlantiradi, ikkinchidan, ishtirokchilarni o`zini bemalol his qilishlariga yordam beradi.

**Aqliy xujum metodi:** «Aqliy hujum» biror muammoni yechishda gurux qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to`plab, ular orqali ma`lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to`g`ri va ijodiy qo`llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o`rgatadi.

**FSMU texnologiyasi:**

(F) – Fikringizni bayon eting.

(S) – Fikringiz bayoniga biron sabab ko`rsating.

(M) – Ko`rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring

(U) – Fikringizni umumlashtiring

Ushbu texnologiya tinglovchilarni o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga o`tkazishga, ochiq holda bahslashishga, egallangan bilimlarni tahlil qilishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o`rgatadi.

**“Zinama-zina” texnologiyasi:** o`qituvchi o`quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi (guruhlar soni 4 yoki 5ta bo`lgani ma`qul); o`quvchilar mashg`ulotning maqsadi va uning o`tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog`ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo`lgan varaqlar tarqatiladi; o`qituvchi guruh a`zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini va shu mavzu asosida bilganlarini flomaster yordamida qog`ozdagi bo`sh joyiga jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi; guruh a`zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko`rinishida ifoda etadilar. Bunda guruh a`zolari kichik mavzu bo`yicha imkon boricha to`laroq ma`lumot berishlari kerak bo`ladi. Tarqatma materiallar to`ldirilgach, guruh a`zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallar, albatta, sinf doskasiga mantiqan tagma-tag(zina shaklida) ilinadi. O`qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib, ularni baholaydi va mashg`ulotni yakunlaydi.

**Ha-yo`q mashqi:** O`qituvchi bir nima (raqam, predmet, adabiy yoki tarixiy qahramon va boshqa) ni o`ylab qo`yadi. O`quvchilar esa unga savol berib, u nimani o`ylab qo`yganligini topishga harakat qiladilar. O`qituvchi ularning savollariga faqat “Ha”, “Yo`q”, “Ham ha, ham yo`q” so`zlari bilan javob beradi. Savol nojo`ya berilgan yoki o`qituvchi didaktika maqsadlaridan kelib chiqib, savolga javob berishni xohlamaydigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. SHunda u oldindan belgilangan ishora bilan javob berishdan voz kechadi. Mashq yakunlanganidan so`ng albatta qanday savollar kuchli, qandaylari kuchsiz va nima uchunligi yuzasidan qisqa

muhokama o`tkazish shart. Mashqning maqsadi – bolalarni savollarni tartibsiz berishga urintirmasdan, ularni izlash strategiyasini ishlab chiqishga o`rgatishdan iboratdir.

“Kungaboqar”: O`quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlariga bo`linadi. O`qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o`rtaga bitta muammoni tashlaydi. Har bir guruh kungaboqar yasab, uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Mavzuga qarab, doiraga har bir guruhga yoki umumiy bitta muammo yozilib, doskaga yopishtiriladi. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikrlarini bargga yozib, uni o`sha guruh muammosi yozilgan gulga joylashtirib qo`yadilar. Bu uslubdan o`tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda talabalar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

“Blits-so`rov” texnologiyasi: ushbu usul orqali talabalarga tarqatilgan qog`ozlarda ko`rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o`z fikrini boshqalarga o`tkaza olish yoki o`z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo`la olish kabi ko`nikmalarni shakllantirish.

Mashg`ulotlarda interfaol usullardan foydalanish ta`lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. To`g`ri tanlangan usul maqsadga erishishda birlamchi qadam bo`lish barobarida talimda innovatsiya, erkin fikrlash, mulohaza yuritish va masalaning yechimini izlab topish yo`l yo`riqlarini shakllantiradi. Ta`lim sifatini yaxshilash, o`quvchilarga sifatli ta`lim berishda pedogoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to`g`ri tanlov va o`quvchilarda qiziqish uyg`otish talab etiladi. Shu bilan birga pedogog ko`proq o`z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi, o`quvchi qalbiga kirib borishi muhim hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O. U. Arlayev, S. N. Jo`rayeva, S. P. Mirzayeva “Ta`lim metodlari” o`quv uslubiy qo`llanma, “Navro`z” nashriyoti, Toshkent 2017.
2. Baxtiyor Roziq. Yangi metodlar. T., 2019.
3. J. G'. Yo`ldosheva, F. Yo`ldosheva, G'. Yo`ldoshev “Interfaol ta`lim sifat kafolati” T. 2008
4. G`oziev E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. – «Xalq ta'limi», 1999- yil 6-son
5. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G'. Salohitdinova “Pedagogik texnologiya” T. O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008.